



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xoliqova Azizaoy Ilhom Qizi, Madaminova Munisa Akmalovna

SamDU Kattaqo'rg'on filiali, Maktabgacha ta'lism yo yo'nalishi 1-bosqich talabalari

**INKLYUZIV TA'LIM.MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA
INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY ETILISHI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lism tizimi bo'l mish inklyuziv ta'lism tizimining rivojlanishi va bu ta'lism tizimining maktabgacha ta'lism muassasalarida ham joriy etilishi haqida fikr yuritiladi. Inklyuziv ta'lism tizimini yanada rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar va ularning amaldagi namunasi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье будет рассмотрено развитие системы инклюзивного образования, являющейся новой системой образования, внедряемой в нашей стране, а также внедрение этой системы образования в дошкольных образовательных учреждениях. Речь пойдет о принятых решениях по дальнейшему развитию системы инклюзивного образования и их практическом примере .

Annotation: This article discusses the development of the inclusive education system, which is a new education system being introduced in our country, and the introduction of this education system in preschool institutions. He talks about the decisions taken on the further development of the inclusive education system and their current model.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, Maktabgacha ta'lism, anomal, pedagoglar, maxsus ta'lism

Ключевые слова: инклюзивное, дошкольное образование, аномальное, педагоги, специальное образование

Keywords: inclusive, preschool, anomalous, educators, special education.



KIRISH

O'zbekiston Respubliksi mustaqil davlatlar qatoriga qo'shilgandan buyon iqtisod , siyosat shu qatorda ta'lif tizimi ham yanada taraqqiy etdi .Hozirgi kunda ta'lif tizimiga davlat siyosati sifatida e'tibor qaratilmoqda.Ta'lif tizimini tubdan isloh qilish uchun ,avvalo, ta'lif tizimining eng asosiy va boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lif tizimida samarali tizimni tashkil etish va ushbu tizim tuzasidan chora tadbirlar amalga oshirish lozim . Maktabgacha ta'lif tizmini tizmini yanada takomillashtirish uchun maktabgacha ta'lif muassasalarini zarur o'quv materiallari bilan ta'minlash, maktabgacha ta'limga bolalarning qamrovini kengaytirish , sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalg qilish masalalarini hal qilish lozim.

Asosiy qism.Maktabgacha yoshdagi bolaning mактаб та'lifiga o'tishi ko'pincha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lif muassasasida yoki uydayoq mактаб та'lifiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xolos bo'lishga yordam beradi. Yuqorida бола rivojlanishiga qo'yilgan talablar Davlat talablarida aks etgan. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligining 2018 yil 18-iyundagi 1-sonli buyrug'iga asosan "**O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari**" ishlab chiqilib, ushbu Davlat talablarida bolaning quyidagi rivojlanish sohalari belgilangan:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- Ijtimoiy - hissiy rivojlanish;
- Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

-Bilish jarayonini rivojlanishi;

Bugun yurtimizdagи har bir bolaga davlatimizning barcha huquqlaridan to'liq foydalananadigan fuqarosi sifatida qaralishini takidlab o'tishimiz lozim. Aynan shu qonunlarga binoan yurtimizda yashayotgan alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lif olishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'lif siyosati yuritilmoqda. Inklyuziv ta'lif bu anomal toifadagi bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiruvchi ta'lif tadbirlariga jalg etishdir. **Anomaliya** - kamol topishning umumiyl qonuniyatlaridanchetga chiqish hisoblanadi. Inklyuziv ta'lif vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'iy nazar , ularning barchasiga sifatlari ta'lif taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga inkkyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mактабда bilim olishlar lozinligini nazarda tutadi.Inklyuziv ta'lif tizimi nogironlar aravachasidagi бола yaqin atrofda joylashgan har qanday mактабда ta'lif olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa , o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yrdamga ega bo'lishi , darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.Shundagina imkoniyati cheklangan bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok



etishga erisha oladilar.Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida,balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari,shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir.Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridan oq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'limolishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Inklyuziv ta'lim orqali anomal bolalarning ta'lim olishi va ijtimoiy jamiyatga moslashishini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolaga nima beradi?

- o' imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;
 - mustaqil harakatlanish birgalikda hamkorlikda , hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
 - o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishi ortadi ;
 - qo'rquv , yotsirash va yakkalanish kabi xususiyatlari kamayadi.
- Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?**
- o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti , ehtiyojlarini his qiladilar;
 - tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
 - ularni qo'llab-quvvatlash , yordam berishga intilish-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
 - Atrof muhitdagi insonlarga nisbatan pozitiv munosabat shakllanadi;

Xulosa

Hozirgi kunda Yakkasaroy tumanidagi 369-sonli MTMda psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun 7 ta guruh hamda inklyuziv yo'nalishdagi umumiy ta'lim bo'yicha 7 ta guruh ochilishi rejalashtirilmoqda. Yakkasaroy tumanida kapital ta'mirlanishdan keyin ochilgan 369-sonli MTM **birinchi inklyuziv maktabgacha ta'lim muassasasi** bo'ldi. Birlashtirilgan turdag'i MTM ruhiy rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan guruuhlar va umumiy ta'lim guruuhlaridan iborat bo'ladi.“Inklyuziv ta'lim – ham sog'lom, ham imkoniyati cheklangan bolalarga birdek kerak. Biz har bir bola bag'rikeng bo'lishga o'rgatish bilan birga inson qadriyatlari uning imkoniyatiga bog'liq emasligi haqidagi fikrni singdirmoqchimiz. Yoshlik chog'ida bolaning ruhiy holati ochiq, egiluvchan va o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. Insonlar orasida turli fe'l va qiyofaga ega insonlar mavjudligiga o'rgangan bolalar kelajakda o'zlaridan farq qilgan bolalarga zulm yetkazmaydi. Jismoniy rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun MTMga qatnash muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berib, ularning keyingi ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi. Bolalarning bir-biri bilan uchrashishi faqatgina o'yin maydoni yoki oshxona bilan cheklanib qolmaydi. Inklyuziya tamoyilini amalga oshirish maqsadida har bir oddiy guruuhga uch nafar imkoniyati cheklangan, masalan nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar qatnaydilar. Biz homiylar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan maktabgacha ta'lim muassasalari soni ko'payishidan umid qilib qolamiz”, - deydi maktabgacha ta'lim vaziri **Agrippina Shin**.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining ta'lif tizimida Inklyuziv ta'lif tizimini joriy etish va rivojlantirish haqida quyidagicha qaror qabul qilgan:

O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori “Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5712-sون Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'lifni rivojlantirish, alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lif xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o'rinnarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2020 — 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” (keyingi o'rinnarda — “Yo'l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq;

Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo'l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'zbekistonda Maktabgacha ta'lif tizimida inklyuziv ta'lifning joriy etilishi bolalarning ta'lif tizimiga nisbatan samaraliroq ishtirok etishiga hamda ijtimoiy jamiyatga ertaroq moslashib, o'zini o'zgalar bilan birdek his qilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. 2020-2025 yillar O'zbekistonda inklyuziv ta'lifni rivojlantirish konsepsiysi

2. M.Po'latova "Korreksion pedagogika"

Source and literature used

1. 2020-2025 years development of inclusive education in Uzbekistan

2. M.Polatova " Correctional pedagogy"

Использованные источники и литература

1. Развитие инклюзивного образования в Узбекистане на 2020-2025 годы

2. М.Полатова. "Коррекционная педагогика"